

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori: D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIY LOYIHALASH
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111300– Texnologik ta’lim

Fan/modul kodi XHBL1304		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy fan		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash		60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'z kasbining mohir ustasi qilib tarbiyalash, ularga boy milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz va hunarmandchiligimiz tarmoqlarini: kashtachilik, zardo'zlik, do'ppido'zlik, quroqchilik, gilamdo'zlik, zargarlik, kulolchilik, me'morchilik, pichoqchilik, kandakorlik, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi san'atini qayta tiklash va rivojlantirish bosqichlari bilan tanishtirish hamda milliy qadriyatlarimizni ardoqlash, ular bilan faxrlanish, g'ururlanish xislarini rivojlantirish, avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq hunarmandchiligi ustalarining munosib davomchilari bo'lish, yaratuvchanlikka, go'zallikka intilish kabi tuyg'ularni tarkib toptirishdan iboratdir. Fanning asosiy vazifalari - qo'lda bajariladigan ishlar uchun ish o'rinlarini tashkil qilish, qo'l ishlarini bajara olish, kashta tikish usullarini, zardo'zlik, quroqchilik texnikasini to'g'ri tanlay olish ko'nikmalarini hosil qilishdir. Fanning asosiy manbalari: Har bir fan, o'z manbalariga ega bo'lib, ushbu manbalar asosida rivojlanganidek, mamlakatning oliy vakillik organi xamda vakolatli davlat hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlar Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanining manbalari bo'lib hisoblanadi. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanining manbalari deganda hunarmandchiligimiz tarmoqlarini: kashtachilik, zardo'zlik, do'ppido'zlik, quroqchilik, gilamdo'zlik, zargarlik, kulolchilik, me'morchilik, pichoqchilik, kandakorlik, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi san'ati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda hizmat qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar tushuniladi Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Farobiy nomidagi Qozoq Milliy universitetida o'qitiladigan "Dizayn asoslari", "Dizayndagi milliy naqshlar" fanlarining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings-2024 bo'yicha 163-o'rinni egallagan bo'lib, dizayn sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.				

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Farobiy nomidagi Qozoq Milliy universitetida yuqorida keltirilgan o'quv kurslarida xalq hunarmandchiligining nazariy asoslari bilan bir qatorda, milliy merosni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga ham keng ahamiyat qaratilgan.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro huquqiy me'yorlar, ayniqsa, funktsional va estetik dizayn qoidalariga muvofiq eskizdan tayyor mahsulotgacha boshqa umuminsoniy prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar insonning qadriyat yo'nalishlari asosida zamonaviy ma'lumotlarni boshqaradi, dalillarga tayangan holda amaliy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. Kirish. Xalq hunarmandchilik san'atining tarixi va uning rivojlanish bosqichlari.

Jamiyatning madaniy va tarixiy an'analari, atrof-muhitni muhofaza qilish va milliy merosni muhofaza qilish bo'yicha ijodiy qarashga asoslangan o'z-o'zini rivojlantirish strategiyasini belgilash.

2. Kashtachilik san'ati haqida umumiy ma'umot. Dizayn mahsulotini yaratish va targ'ib qilishda xalq estetikasining roli.

3. Zardo'zlik san'ati haqida umumiy ma'lumot. Milliy bezak texnikasi va san'atini o'rganish.

4. Do'ppi tikish texnologiyasi.

5. Quroqchilik texnikasi.

6. Gilam va savat to'qish san'ati.

7. Zargarlik san'ati. Bezak san'ati haqidagi kasbiy g'oyalar.

8. Kulolchilik san'ati.

9. Kandakorlik san'ati.

10. Pichoqchilik san'ati.

11. Ganchkorlik san'ati.

12. Me'morchilik san'ati.

13. Naqqoshlik san'ati.

14. Yog'och o'ymakorligi san'ati.

15. Buyumlarni bezash tartibi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qo'lda va mashinada kashta tikish. Qo'lda kashta tikishda kashtado'zning ish o'rnini tashkil etish. Kerakli jihoz va moslamalar. Milliy bezaklarni tahlil qilish.

2. Kashtado'zlikda qo'llaniladigan choklarni tikish usullari.
3. Milliy kashtado'zlik maxsulotlaridan namunalar tikish.
4. Gobelen uslubidagi kashta uchun ramka tayyorlash va naqsh chizish
5. Gobelen uslubida kashta tikish
6. Zardo'zlikda qo'llaniladigan jihoz va moslamalar bilan ishlashni o'rganish.
7. Zardo'zlikda ishlatiladigan chok turlaridan namuna tikish.
8. Do'ppi tikish texnologiyasi.
9. Do'ppi tikishda ishlatiladigan materiallar va bezak elementlar bilan tanishish.
10. Do'ppi uchun asos, materiali tanlash va o'lchov olish va bichish
11. Do'ppini tikish va bezatish.
12. Quroqchilik texnikasi. Quroq tikish usullari.
13. Izonit tikish usullarini o'rganish.
14. Izonitdan namunalar tikish.
15. Lentadan turli xil bezak tayyorlash

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xalq hunarmandchiligi tarixi va maktablari.
2. O'zbekistonda xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilikning rivojlanishi.
3. Ayollar va bolalalar kiyimlarini kashta bilan bezash.
4. Taxlama va yassi quroq tikish.
5. Boshqa mamlakatlar xalq hunarmandchiliklari san'ati.
6. Quroqchilik tarixi. O'zbekiston turli viloyatlarida quroq tikish usullari, buyumlari.
7. Turli xalqlarda quroq (pechvorok, kvilt, applikatsiya) texnikasida buyumlarni kompozitsiyalari.
8. Milliy qo'g'irchoqlar tarixi.
9. Turli xalqlarda qo'g'irchoqlar tarixi.
10. O'zbekistonda xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilikning rivojlanishi.
11. Kandakorlik san'ati. Kandakorlar tomonidan tayyorlangan milliy idishlar.
12. Amaliy san'at maktablari va ulardagi o'ziga xosliklar.
13. Amaliy san'atda naqqoshlikning ishlatilish sohalari va turli xil amaliy san'at asarlariga naqsh bajarish uslublaridagi farqlar.
14. Kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayoni va ularda mahalliy o'ziga xosliklarning aks etishi.
15. Kandakorlik san'ati. Kandakorlar tomonidan tayyorlangan milliy idishlar.
16. Kashtachilik turlari. So'zana.

	17. Zardo‘zlik. Zardo‘zlikda qo‘llaniladigan naqsh turlari. 18. Gilam to‘qish san’ati. Gilam to‘qish uslublari. 19. Savatchilik xunari tarixi. 20. Savatchilikda foydalaniladigan jihoz va moslamalari. Savat to‘qish uslublari. 21. Do‘ppido‘zlik. 22. Savat to‘qish uslublari. 23. Zardo‘zlik san’ati tarixi, rivojlanishi. 24. Zardo‘z ustalari va zardo‘zlik maktablari. 25. Zardo‘zlik ish o‘rnini tashkil qilish. 26. Zardo‘zlik san’atiga kerakli jihoz va moslamalari. 27. Zardo ‘ zlik maxsuloti turlari. 28. Zardo ‘zlik maxsulotlarini tikish texnologiyasi. 29. Qo‘lda kashta tikish san’ati. 30. Turli xalqlar kashtado‘zligi. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan amaliy ishlar tayyorlash tavsiya etiladi.
3.	VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: Xalq hunarmandchiligi fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: - xalq xunarmandchiligi va badiiy loyihalash haqida umumiy tushunchalar; milliy hunarmandchilik asoslari; turli millatlar xalq hunarmandchiligi turlari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishi kerak; xalq hunarmandchiligi usulida buyum tayyorlash; xalq hunarmandchiligini zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirish; xalq hunarmandchiligi uchun materiallar tanlash; tikuv buyumlarini zamonaviy dizayn asosida mustaqil tayyorlay olish; xalq hunarmandchiligi uchun kerakli asbob uskunalarlardan foydalanish, dizayn va badiiy loyihalashning turmushdagi va texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati, buyumlarni badiiy loyihalash metodlari, belgi va ramzlar, sanoat grafikasi asoslari, hajmli maket tayyorlash asoslari bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; - o‘zbek milliy xalq hunarmandchiligi turlari, kashtachilik tarixi, foydalaniladigan materiallar, asbob uskunalar, kashta tikish texnologiyasi; zardo‘zlik tarixi, foydalaniladigan materiallar, asbob uskunalar, zardo‘zlik tikish usullari va texnologiyasi; do‘ppichilik tarixi va taraqqiyoti, o‘lchov olish va andoza tayyorlash, foydalaniladigan materiallar, asbob uskunalar, do‘ppi tikish usullari va chilangarlik texnologiyasi, pichoqchilik texnologiyasi, sandiqdo‘zlik texnologiyasi, naqqoshlik texnologiyasi, ganchkorlik texnologiyasi, zargarlik texnologiyasini bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi kerak;
4.	VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar Asosiy adabiyotlar 1. I.Karimov. "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" – Darslik. Toshkent. 2022. 2. K.G'ulomov. Amaliy san'at.: Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA» 2011 3. S.Bulatov «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati», T., «Mehnat» 2001. 4. I.Karimov "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" – O'quv qo'llanma. Toshkent 2020. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Yusufxodjayeva F.M. Texnologik ta'lim praktikumi. Darslik T. 2023. 2. M.Usmonova "Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish" O'quv qo'llanma. T.-2022. 3. M.Usmonova "Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish II-qism" O'quv qo'llanma. T.-2023. 4. Yuldashev O.T. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. Darslik T. 2023. 5. B.B.Umrzaqov "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022. Axborot manbaalari 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. https://welcome.kaznu.kz/ru/education_programs/bachelor/speciality/1396#general
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: M.Usmonova – Qo'qon davlat universiteti "Texnologik ta'lim va kutubxonashunoslik" kafedrasida dotsenti.
9.	Taqrizchilar: I.Karimov - Qo'qon davlat universiteti "Texnologik ta'lim va kutubxonashunoslik" kafedrasida professori, pedagogika fanlari nomzodi. X.B.Muxamedova - O'zMPU, Texnologik ta'lim metodikasi kafedrasida katta

	o'qituvchisi.
--	---------------